

BO‘LAJAK MUHANDIS XODIMLARNING MOTIV VA MOTIVATSIYALARI

Karimov Sardorbek Anvarjon o‘g‘li

TDTU Pedagogika va psixologiya kafedrası assistent o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada universitet talabalaridagi motiv va motivatsiyalarning kelib chiqishi o‘rganildi. O‘rganish asosan dars jarayonlarida suhbat metodi orqali amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: motiv, motivatsiya, suhbat metodi, ehtiyoj, faoliyat, fasilitatsiya, ingibitsiya.

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib ta‘lim tizimiga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaytirildi. Yoshlarning bilimli va har tomolama kuchli kadrlar bo‘lib yetishishlari uchun davlatimiz tomonidan ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Albatta yoshlarning bilimli bo‘lishlari juda muhim, chunki qaysi sohada bo‘lmasin, bilim va malakaga ega bo‘lgan kadrlar jamiyatimizga juda zarur. Agarda ular o‘z mutahassisliklari bo‘yicha kerakli bilimga ega bo‘lmasalar, bu kelesakda salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirahmonovich Mirziyoyevning “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishga e‘tibor qaratish xar qachongidan xam muhimdir” deb aytgan so‘zlari bejizga emas.

Yurtimizdagi oliygohlarda chet el universitetlari bilan hamkorlikda ko‘plab loyihalar ishlab chiqilmoqda, talabalarni ko‘proq bilimga ega bo‘lishlari uchun hamkorlik shartnomalari tuzilmoqda. Oliygozlarda olib borilayotgan ushbu sayiharakatlar o‘z natijasini beradi albatta. Lekin yoshlarimizning universitetda ta‘lim olishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, ulardagi motiv va motivatsiyalarni o‘rganib chiqish ham samaradorlikning oshirishga yordam berishi mumkin. Xo‘sh bizning yosh talabalarimiz o‘z oldilariga qanday maqsadlar qo‘yishgan? Ushbu maqsadlarni yuzaga kelishida qanday motivlar sabab bo‘ldi? Yoshlarimiz uchun bo‘lajak ish faoliyatlaridagi motivatsiyalar nima? Bu kabi savollarga javob izlar ekanmiz yoshlarning fikrini o‘rganishga majburmiz. Odatda ayrim talabalar abituriyentlik vaqtlarida faqatgina universitetga o‘qishga kirishni maqsad qiladilar. Universitetga kirganlaridan so‘ng esa bilim olishga bo‘lgan intilish anchagina sust ekanligi ko‘rinadi.

Buni qaysidir jihatdan tabiiy holat deyish ham mumkin, sababi talaba abituriyentlik vaqtida universitet talabasi bo'lishni hohlagan xalos, ya'ni maqsad davomli emas yoki asosiy maqsad talaba bo'lish bo'lgan xalos. Lekin yuqori darajadagi bilimga ega shifokor yoki bilimli muhandis bo'lishni maqsad qilganlarida edi, oliygohga o'qishga qabul qilinganlaridan keyin ham intilishda, ilm o'rganishda, sustkashlikga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar.

Talabalarni fikrini o'rganish uchun eng yaxshi usul suhbat metodi albatta. Dars jarayonlarida talabalar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirar ekan, ulardagi ichki motivlar ham, kelajakga va o'z sohalariga bo'lgan munosabatlari ham aks etadi nazarimda. Chunki talabalar dunyo qarashi va fikrlashidan kelib chiqib mavzuga o'zining shaxsiy munosabatini bildirgan holatda fikrini bayon etadi. Agarda mavzu ularning kelajakdagi, oliygohni tamomlaganlaridan keyingi faoliyatlari haqida bo'lsa, ular o'zlarining muhandis sifatida qanday joylarda ishlashni hohlashlarini bildiradilar. Suhbat davomida talabalar o'zlaridagi asosiy motivatsiyalarini bildiradilar. Ba'zilar shunchaki muhandis sifatida ishlash va bu kasbni egallash asosiy maqsadi bo'lganligini bildirsa, boshqalari ota-onasi yoki yaqinlarining hohishi sabab bu sohada ishlashni hohlashini aytadilar. Ayrim talabalar esa kelajakda yuqori maosh to'lanadigan joyda ishlashni va o'zlaridagi bo'lajak ish faoliyatidagi motivatsiya yuqori maosh olish istagi ekanligini bildirdilar. Ishga nisbatan to'lanadigan haq ko'proq miqdorda bo'lgani yaxshi albatta, chunki har bir inson yaxshi yashashni, oylik maoshi oilasi va o'zining ehtiyojlarini qoplashini hohlaydi, lekin asosiy motivatsiya pulga bo'lgan ehtiyoj ekanligi ba'zi talabalarning ayni vaqtda iqtisodiy tomondan muamolari borligini ham namoyon qilayotgandek. Talabalar orasida o'z sohasini mukamal darajada egallash orqali eng yaxshi mutahasis muhandis bo'lishni maqsad qilgan yoshlar ham bor. Bu kabi suhbat va o'rganish ishlari kelajakda mutahasislarni tayyorlashda salmoqli natijaga erishishda yordam berishi mumkin. Insonlardagi motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har bir motivning kelib chiqish sababi va manashu sabablar natijasida motivatsiyalar paydo bo'ladi. Ko'pincha talaba yoshlar o'zini o'rab turgan guruh yoki jamoa ta'siri ostida o'zining maqsadlarini belgilaydi. Manashu maqsadlarga yetishish uchun esa atorifadagilarning ta'sir etishi katta ahamiyatga ega. Ish jarayonida ham o'qish jarayonida ham insonlarning bir biriga bo'lgan ta'sirini kuzatish mumkin. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam, o'zlashtirishi yuqori bo'lgan, kuchli bilimga ega talabalar guruhiga, past o'zlashtiruvchi bir talaba kelib qo'shilsa, ma'lum vaqtdan so'ng past o'zlashtiruvchi talabada ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi, bilim olish darajasi o'sishi mumkin. Lekin past o'zlashtiruvchi bilim darajasi qoniqarsiz bo'lgan guruhga, yuqori darajadagi bilimga ega bo'lgan talaba kelib qo'shilsa, yuqori bilimga ega bo'lgan talabada salbiy holatlar kuzatilishi mumkin. Ya'ni bilimli talaba ham guruh ta'siri ostida past o'zlashtirishi, yoki bilim olishga bo'lgan intilishining susayishi

kuzatilishi mumkin. Ushbu vaziyatdagi holat doimiy aniqlikdagi qoida sifatida ham qabul qilinmaydi. Chunki psixologiyada bir qoida barcha insonlar uchun umumiy emas deyishadi. Bunga sabab esa insonlar faoliyat olib borayotgan jamoalardagi ta'sir darajasi yuqori bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Ya'ni yuqorida keltirilgan talabalar jamoasidagi vaziyatlarda ham istisnoli holatlar kuzatilishi ehtimoli mavjud. Bu kabi vaziyatlarda guruhdagi yetakchilar guruh a'zolariga bo'lgan ta'siri fasilitatsiya yoki ingibitsiya ko'rinishida bo'lishi yoki guruhning yangi a'zosining guruhga bo'lgan ta'sir darajasi yuqori bo'lishi ham mumkin. Guruhning rivojlanishi yoki rivojlanishdan ortda qolishi guruh yetakchilarining fasilitatsiyasiga yoki ingibitsiyasiga ham bog'liq.

Motivatsiyani kuchaytirish uning rivojlanishiga va barqarorligini oshirishga ko'plab omillar yordam beradi. Jamoa yoki guruh hayoti, mavjud ijtimoiy munosabatlar, shaxsni maqsadli tarbiyalash, mehnatsevarlikni shakllantirish, tizimli samarali faoliyat, jamoaning ijobiy ta'siri va boshqalar. Hissiy soha energiya tomonidan motivatsion sohaga ta'sir qiladi. Motivatsiyaning tashqi ko'rinishi, hatti-harakat va faoliyat jarayonida uning oqimining dinamikasi uning xususiyatlariga bog'liq. O'z hatti-harakatini boshqarish qobiliyati sifatida iroda shuningdek uning eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida ixtiyoriy harakatga kiritilgan motivlar bilan bog'langan. Muayyan motivatsiyani shakllantirishga keng qo'llaniladigan rag'batlantirish yordam beradi. Rag'batlantirish motivga aylanmasligi mumkin. Ta'lim motivatsiyasi muamosini hal qilishning ahamiyati uning ta'lim jarayonini samarali amalga oshirish uchun muhim ekanligi bilan belgilanadi. Ma'lumki bu talabaning o'zlashtirishi past yoki muvofiqiyatsiz bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. O'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda muamoli vaziyatni yaratish, talabalarning o'z bilimlari bilan hal qila olmaydigan qiyinchilik bilan to'qnashuvi muhim ro'l o'ynaydi. Qiyinchiliklarga duch kelganda ular yangi bilimlarni egallash yoki eski bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash zarurligiga ishonch hosil qiladi. Ular uchun doimiy keskinlikni talab qiladigan vaziyatlar qiziqarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". O'zbekiston NMIU 2017.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008 yil.